

CHET TILINI O`QITISHDA YANGI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Melikova Gavhar Turdiqulovna

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz tili fanini o`qitishda yangi pedagogik metodlar turlari va uni darsda qo`llash usullari hamda metodlardan samarali foydalanishning amaliy ahamiyati xususida so`z yuritiladi. Shuningdik, bu metodlar o`zga tilni o`quvchilarning puxta o`zlashtirishida, o`sha tilda bemalol so`zlay olishida qo`l kelishi haqida ham alohida ma`lumtlar keltirib o`tiladi.

**Kalit so`zlar:** metod, Ingliz tili, samara, ta`lim, o`quvchi, chet tili AKT.

IMPORTANCE AND EFFICIENCY OF USING NEW TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Melikova Gavhar Turdikulovna,

Teacher of the Pedagogical Institute of Karshi State University

ABSTRACT

The article discusses the new types of pedagogical methods in teaching English and the methods of its application in the classroom, as well as the practical importance of the effective use of methods. Therefore, it is noted that these methods are useful for students to master another language and speak it fluently.

Keywords: method, English, effective, education, student, foreign language ICT.

ВАЖНОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Меликова Гавхар Турдикуловна,

Преподаватель педагогического института Каршинского государственного университета.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются новые виды педагогических методов в обучении английскому языку и методы их применения на занятиях, а также практическое значение эффективного использования методов. Таким образом, следует отметить, что эти методы полезны для учащихся, которые могут свободно владеть другим языком и говорить на нем.

***Ключевые слова:** метод, английский, эффективный, образование, студент, иностранный язык ИКТ.*

KIRISH

Xabarimiz borki, shu yili prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida 2021-yildan chet tili o'qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritilishi haqida ta'kidlangandi. Bu esa biz chet tili o'qituvchilarining yelkasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Endi an'anaviy dars metodlari o'rniga yangi AKTdan foydalangan holda interfaol usullar asosida dars jarayonini tashkil qilishimiz lozim. Bu ta'lim davr talabi ham bo'lib, o'qituvchini o'z ustida yana ham ko'prok ishlashga to'g'ri keladi. Maqolada ham dars o'tishning yangi usullariga e'tibor qilar ekanmiz avvalo, bu usullarning turi va samarasiga e'tibor qaratish lozim

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratilmoqda. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshdi. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

— kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

— chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

— ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;

— CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Chet tili darslarining o'tilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish zarur.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ilg'or metodlar chet tilini puxta o'zlashtirishda kompos vazifasini o'taydi.

Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanishdir. Rolli o'yinlar bu real hayotimizdagi turli situatsiyalarni chet tili o'rganish jarayonida qo'llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi.

Masalan: 1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi. 2-holat Yo'ldan o'tayotib yo'l qoidasiga rioya qilmagan bolani ya'ni o'tish bo'lmagan yo'lni kesib o'tadi. 3-holat. Magazinda oziq ovqat olish uchun xaridor kiradi. 4 Ushbu situatsiyalar bo'yicha sahna ko'rinishlari ijro etiladi. Bunday hayotiy rolli o'yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Rolli o'yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashga o'rganadilar, o'z emosional holatlarini chet tilida erkin ifodalay olishga o'rganadilar. Rolli o'yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarini to'g'irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to'g'irlash ham tilni o'rganishga yordam beradi va talabalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatadi. Dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish bir vaqtning o'zida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari rolli o'yinlar talabalarning chet tilini o'rganishga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli, quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi metod bu «Keys-stadi» bo'lib inglizcha, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «study» — o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Eng qiziqarli metodlardan biri - «Pantomimo» o'yinida 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so'zlar ro'yxat asosida beriladi. Ular biror bir so'z aytmasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so'zlarni qolgan guruh a'zolariga tushuntirishlari kerak.

“Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga

qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish [3]; – “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi; – “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi; – “Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – “Allomalar yig'ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – “Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; – Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi. Ko'rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Jamol Jalolov chet til o'qitish metodikasi, o'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent - 2012
2. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
3. Отабоева, М. Р. Чет тилини о'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning

samaradorligi / M. P. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: 4.<https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020) N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA 5. QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

5. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “CHET TILINI O’QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

6. O’.Hoshimov, I. Yoqubov. “INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI” (o’quv qo’llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003